

**QUTAYBA IBN MUSLIMNING XUROSON VA MOVARAUNNAHR HUDUDLARIGA
YURUSHI****Satimova Lobar Rustambek qizi**

Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultetining “Tarixshunoslik va manbashunoslik” yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14665741>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Arablarning mohir lashkarboshisi bo‘lgan Qutayba ibn Muslimning hayoti va Xurosonga noib etib tayinlanishi, Xuroson va Movaraunnahr hududlarini to’liq boysundirishi hamda bu hududlarda olib borgan siyosati yoritib berildi.

Kalit so’zlar: Qutayba ibn Muslim, Xuroson, Poykand, Buxoro, Islom dini, “Jome” masjid, “Attorlar darvazasi” yoki “Bozor darvoza”.

QUTAIBA IBN MUSLIM'S CAMP TO KHURASAN AND MOVARAUNNAHR

Abstract. In this article, The Life and appointment of Qutayba ibn Muslim, a skilled Arab Army leader, as Viceroy of Khurasan, the complete enrichment of the Khurasan and Movaraunnahr areas, and the policies he pursued in these areas were highlighted.

Keywords: Kutayba ibn Muslim, Khurasan, Poykand, Bukhara, Islam, mosque “Jome”, Attorlar darvazasi” or “Bozor darvoza”.

ПОХОД КУТАЙБЫ ИБН МУСЛИМА В ХОРАСАН И ТРАНСОКСАНИЮ

Аннотация. В статье описывается жизнь Кутайбы ибн Муслима, искусного арабского военачальника, его назначение наместником Хорасана, полное подчинение им регионов Хорасана и Трансоксании, а также его политика в этих регионах.

Ключевые слова: Кутайба ибн Муслим, Хорасан, Пойканд, Бухара, ислам, мечеть «Джаме», «Аттарлар Дарвазаси» или «Базар Дарваза».

Kirish

Arablarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi nisbatan uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning oqibatlari avvalgi chetdan kirib kelgan xalqlardan ancha muhim ahamiyat kasb etdi.

Arablar nafaqat yangi etnik ko‘rinishlarni olib keldilar, balki Markaziy Osiyoga yangi din – islomni olib kirdilar. Islom dini va madaniyati mintaqaning keyingi butun tarixida muhim ahamiyat kasb etadi, zotan yangi dinning o‘rnatalishi diniy mansublik va e’tiqodga asoslangan yangi o‘zlikni shakllantirishning boshlanishini ko‘rsatdi.

Tarixchi olim Muhammad Narshaxiyning yozishicha, Qutayba ibn Muslim 42 hijriyda (milodiy 661) Shomning Boxiliy degan joyida tavallud topgan.

Qutayba ibn Muslim o‘z qavmida sharafga ega, adib va olim bo‘lgan. Qo‘l ostidagilarga nisbatanadolatli, yuksak axloq sohibi, haqiqatgo‘y edi. Qutayba ibn Muslim yuzaki kamtarlikni yoqtirmas edi.

Qutayba ibn Muslim arab lashkarboshchisi bo‘lib, intizomni mustahkam saqlagan, iste’dodli, qat’iyatli va irodasi mustahkam odam bo‘lgan. Har qanday ishni maslahat bilan amalgao shirgan.

Asosiy qism

Arablar uzoq vaqt davomida avval Xurosonga, keyin O‘rta Osiyoga kirib keldilar.

Ubaydulloh ibn Ziyoddan keyin 676-yilda Sa’id ibn Usman Xurosonga bir qancha muddat noiblik qildi. So‘ngra 706-yilda Umaviylar xalifasi al-Valid ibn Abdulmalikning Iroqdagagi qudratli voliysi Xajjaj ibn Yusuf as-Saqafiy O‘rta Osiyoni o‘z idorasiga butunlay olish maqsadida Xurosonga Qutaybani noib etib tayinlaydi. Qutayba Xurosonga kelgach, uni o‘ziga buysuntirdi, shuningdek, Toxaristonni ham fatx qildi. U 707-yilda Poykandga yurish qiladi. Juda qattiq janglardan so‘ng Poykand xalqi omonlik so‘raydilar va Qutayba bilan sulkx tuzadilar. Manbalarda yozilishicha, Qutayba Poykanddan juda katta boylik bilan chiqib ketgan. So‘ngra Qutayba Buxoroga yurish qiladi. Qutayba Buxoroni olish uchun Vardonxudot bilan ko‘p urush olib boradi, uning ustidan g‘olib chiqadi. Lekin Buxoroning ichkarisiga kira olmaydi, faqat Buxoroning atrofidagi Torob, Xinbun kabi mayda qishloqlarni qo‘lga olish bilan cheklanadi.

Nixoyat, Qutayba 709-yilda katta kuch bilan Buxoroni qo‘lga kiritishga muvaffaq buladi.

Qutayba ibn Muslim Buxoroga uch marta yurish qiladi. Har yurishdan so‘ng Buxoro ahолиси isломни qabul qilar, lekin qish fasli kirib, arab lashkarlari sovuqdan qaytib ketishganda, yana o‘z dinlariga qaytib olishardi. Oxirgi (to‘rtinch) marta Qutayba Buxoroga yurish qilganda, u yerga ko‘chirma qilib arablardan ellik ming kishilik oilalarni Rabi’ ibn Ziyodning qo‘l ostida Balx va uning tevarak atrofiga keltirib joylashtirdi. Ko‘chmanchi arablar yerlik aholi bilan oldi-berdi qilib, yaqin aloqada bo‘lib ketishdi. Bu o‘z navbatida, aholi orasida isломning tarqalishida asosiy zamin bo‘ldi.

Tariyxiy manbalarni kuzatib shuni aytish mumkinki, arablar Movarounnahrga faqatgina isломни yoyish uchun kelmaganlar, balki isломни shior qilib, xalqni talaganlar. Movarounnahrga yuushtirilgan yurishlarining asli sababi ham shu edi.

Arablar ilk bor Movarounnahrga Amudaryo orqali o‘tib kelganlarida, mamlakatning go‘zal tabiatini va tabiiy boyliklarini ko‘rib, isлом shiori ostida kelganliklarini unutib qo‘yadilar va yurtni talay boshlaydilar. Qutayba Buxoroni bosib olgach, u yerga Xotunning o‘g‘li Tug‘sodani podshox qilib tayinlaydi. Chunki Tug‘soda Qutaybaning qo‘li ostida isломni qabul qilgan edi. Tug‘sodanining taxtga o‘tirishi Buxorodagi qadimiy maxalliy sulolalar hokimiyatini saqlab qolishga turtki bo‘ldi. Uning fuqarolaridan ayrimlari isломga kirishdi.

Xurosonga Ashras ibn Abdullox as-Sulamiyning noib etib tayinlanishi, yangi dinga kiruvchilar oqimini yanada jadallashtirdi.

Tug‘shoda o‘ttiz ikki yil Buxoroni boshqardi. U Qutayba bilan juda yaxshi munosabatda edi, shu bois birinchi o‘g‘lining ismini uning sharafiga Qutayba qo‘yadi. Tug‘shoda vafot etgach o‘g‘li Qutayba taxtga o‘tirdi. Lekin u ko‘p o‘tmay dindan qaytadi arablarga bo‘ysunmay qo‘yadi.

Bundan habar topgan arablar Qutayba va uning tarafdarlarini o‘ldiradilar. Keyin uning o‘g‘illari: Bunyod ibn Tug‘shoda va Sukon ibn Tug‘shodalar xukmronlik qiladilar. Ular ham Buxoro taxtida ko‘p o‘tirmay turli xil guruhlarga qo‘shilib dindan chiqadilar. Bu paytda xalifalik al Maxdiy qo‘lida edi. U Tug‘shodaning o‘g‘illarini qatl ettiradi. Shu tariqa Buxoro shahriga Abu Isxoq Ibroxim ibn Xolid ibn Bunyod hokim bo‘ladi.

Qutayba o‘z noiblik davrida 712-yilda Xorazm yerlarini, so‘ng Tolixon va Marv hududlarni fatx qiladi. U juda ko‘p janglarda g‘olib chiqadi, katta boylik to‘playdi. U qo‘lga kiritgan oltin va kumush buyumlar eritilganda, taxminan 150 ming misqol bo‘lgan.

710-yilda Qutayba katta qo‘sish bilan Shom, Kesh va Nasafni bosib oladi. Keyin Faryobga yurish qiladi va u yerdagi qattiq jangdan so‘ng shaharni qulga kiritadi. Qutayba o‘z harbiy yurishlarini davom ettirib, 711-713-yillarda Xorazm, Samarcand va Farg‘ona o‘lkalarini ishg‘ol qiladi. O‘z hukmronligi davrida Movarounnahrning ko‘pgina viloyatlarida masjidlar qurdiradi.

Ayniqsa, uning Buxoroda qurdirgan “Jome” masjidi mashhur hisoblangan. U masjidga kelgan kishilarga islomni da’vati uchun ikki dirhamdan tarqatadi, Bu esa o‘sha davrda ancha katta pul edi. Qutayba o‘lkada arablar hukmi mustahkam yoyilishi uchun qattiq qo‘llik bilan ish yuritadi va har bir yerli aholi xanodoniga bittadan arab oilasini joylashtiradi. O‘sha davrda Buxoro shahrida yetta katta darvoza bo‘lib, ulardan “Attorlar darvazasi” yoki “Bozor darvoza” eng asosiysi sanalardi. Shahar bazoriga juda yaqin bo‘lgani bois kim Buxoroga tijorot uchun kelsa, shu darvozadan kirardi. Qutayba nazorot uchun Buxoro shahrining har bir darvozasiga o‘z noiblarini qo‘yadi. O‘sha paytda Buxoroning bozorida mingdan ortiq do‘konlar bo‘lib, Qutayba o‘z nazorotchilariga mana shu do‘konlarning hammasini ro‘yxatga olib nazorot qilib borishni topshiradi.

Qutayba ibn Muslimning O‘rtta Osiyon fath qilishi, bu hududda islomni asosiy din sifatida yoyganligi jihatidan uning shuhratini abadiylashtirdi. Qutayba davrida Shoshning shimoliy qismlarini, o‘sha davrda Xitoy imperiyasiga qarashli Qashg‘arning janubi-sharqiy qismlarini egalladi. Qutaybaning g‘alabalari va to‘plagan o‘ljalari arablarga ko‘p foyda keltirgan bo‘lsa-da, askarlari unga chin dildan itoat qilishmadni. Qutayba 715-yilda yangi xalifa Sulaymonga qarshi urush qilmoqchi bo‘lganida hech kim qo‘llab quvvatlamadi va u o‘ldirildi. Qutaybaning vafotidan keyin ham arablarning yurishi davom etdi.

Bu bilan Movarounnahrning arablar tomonidan fath etilishining uchinchi davri boshlandi va u VIII asr o‘rtalarigacha davom etdi. Ayni paytda Movarounnahrda arablarning qirqdan ziyod qabilasi faoliyat ko‘rsatdi.

Mazkur ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyo xalqlarining arab hukmronligiga qarshi kurashi zabt etishning dastlabki davrlaridanoq boshlangan. Qo‘zg‘olon va harakatlarning maqsadi - xalifalik jabr-zulmidan qutulish va mustaqillikka erishish edi. Lekin bu urinishlar xech bir natija bermadi, chunki arablar hududda o‘z mavqelarini mustahkamlash uchun har bir shahar va viloyatga o‘z askarlarini o‘rnatgan edilar, o‘z hukmlarini yuritishga xalaqit berish ehtimoli bo‘lgan barcha to‘sirlarni bartaraf qilishga urindilar.

Qutaybadan so‘ng 717-722-yillar davomida Umar ibn Abdulaziz, Jarrox ibn Abdulloh, Abduraxmon ibn Na’im, Asom ibn Abdulloh va boshqalar Xuroson va Movarounnahr viloyatlarini boshqaradilar. Ular ichida eng odil va rahmdil hisoblangan xalifa Umar ibn Abdulaziz (718-720) davrida aholining turmush tarzi ancha yaxshilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arablar istilosiga tufayli Movarounnahrda e’tiqodlar almashinuvni sodir bo‘ldi. Mahalliy dinlar o‘rnini islom egalladi. Qutayba Movarounnahr viloyatlaridagi eski yozuvlarni yaxshi bilgan olim, xattot, ruhoniylarni deyarli qirib tashladi va kitoblarini yondirdi, oqibatda tub aholining ilmiy saviyasi pasaydi, lekin O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatining ildizlari saqlanib koldi. Abbosiy xalifa al-Ma’mun davriga kelib Movarounnahr har sohada gullab-yashnadi.

REFERENCES

1. Arminniyus Vamberi. Tarix Buxara munzu aqdam al-usur xatta al-asr al-xadir. s.39. 1990 y.
2. Bartold V V. SochineniY. T, I. M.: Nauka, 1963, s. 243.
3. Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. Tarix Buxoro. Qohira. Dor al-Maorif. Yili ko‘rsatilmagan. 77 bet.
4. Bartold V.V. SochineniY. -M.: Nauka, 1963, s. 241.
5. Xasan Ibrshim Xasan. Ta’rix al-Islom. Qohira: As-sunna al-islomiya, 1964, 1-jild, s. 304.
6. Kadirova T. Iz istorii krestyanskix dvijeniy v Maverannaxre i Xorasane. T.: Nauka, 1965, s.64.
7. Kosoniy Mubashshir S. O‘rta Osiyo tarixi. Jidda: 1991, 207-b.